

KORXONA MOLIVAVIY NATIJALARINI SHAKLLANTIRISHDA ICHKI NAZORAT VA AUDIT KO'RSATKICHLARINING EMPIRIK TAHLILI

Xamidov Javoxir Shavkat o'g'li

Urganch davlat universiteti

Mustaqil tadqiqotchisi

javoxir22282@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxona moliyaviy natijalarini shakllantirish jarayonida ichki nazorat va audit tizimi ko'rsatkichlarining ta'siri empirik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda moliyaviy hisobotlar hamda ichki audit ma'lumotlari asosida shakllantirilgan axborot bazasidan foydalanilib, ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarga ta'siri statistik va ekonometrik usullar orqali baholangan. Tadqiqot natijalari moliyaviy natijalarning shakllanish omillarini aniqlash, ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: moliyaviy natijalar, ichki nazorat, ichki audit, empirik tahlil, ekonometrik usullar, korxona moliyasi.

KIRISH.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda moliyaviy natijalarning shakllanish jarayonini chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ichki nazorat va audit tizimi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biri hisoblanadi. Amaliyotda ko'plab korxonalarda ichki nazorat va audit tizimi mavjud bo'lishiga qaramasdan, ushbu tizim ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarga ta'siri empirik jihatdan yetarli darajada baholanmayapti. Bu holat moliyaviy natijalarning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini miqdoriy baholash hamda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari asosida moliyaviy natijalarni empirik tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda empirik va ekonometrik usullardan foydalanish moliyaviy natijalarning shakllanish mexanizmini aniqlash, ichki nazorat va audit tizimining samaradorligini baholash hamda ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini miqdoriy ko'rsatkichlar orqali ifodalash imkonini beradi. Biroq bunday tahlilni amalga oshirish uchun ichki nazorat va auditga oid ko'rsatkichlar asosida shakllantirilgan ishonchli va tizimli axborot bazasining mavjudligi muhim ahamiyatga ega. Hozirgi global iqtisodiyotda ichki auditning dolzarbligi korporativ barqarorlik, raqamli

transformatsiya, kiberxavfsizlik va xalqaro shaffoflik talablari bilan bog'liq. Ichki audit korxonalar uchun barqaror rivojlanishning kafolati bo'lib, investitsion ishonchni oshiradi.

1. Ichki audit global iqtisodiyotda korporativ ishonch va shaffoflikni ta'minlovchi muhim tizimdir.

2. Buxgalteriya ma'lumotlari audit dalillari va strategik qarorlarni asoslash uchun asosiy resursdir.

3. Raqamli texnologiyalar (AI, ERP, Data Analytics) audit samaradorligini oshiradi.

4. Ichki auditni samaradorlik mezonlari orqali baholash korxonaga raqobat ustunligini beradi.

5. Xalqaro tajriba asosida mezonlashgan baholash tizimi milliy audit siyosatini takomillashtiradi. Moliyaviy intizom buzilishlarini aniqlash va ularni bartaraf etish uchun tahliliy asos yaratadi.

Ichki audit — bu korxona ichidagi mustaqil nazorat tizimi bo'lib, u faoliyatning qonuniyligi, samaradorligi va tejamkorligini baholaydi. U quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Resurslardan foydalanish samaradorligini baholash;
- Moliyaviy risklarni aniqlash va kamaytirish;
- Boshqaruv qarorlarini axborot bilan ta'minlash;
- Ichki nazorat tizimini takomillashtirishga ko'maklashish.

Bu esa korxonaning moliyaviy barqarorligini oshiradi, risklarni boshqarish tizimini mustahkamlaydi, tashkiliy samaradorlikni baholash imkonini beradi, Shaffoflik va javobgarlik madaniyatini rivojlantiradi va investorlar, aktsiyadorlar va davlat organlari ishonchini mustahkamlaydi.

Ichki audit jarayonining mazmuni quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. Rejalashtirish bosqichi – risk tahlili va audit dasturini ishlab chiqish.
2. Ma'lumot to'plash va tahlil qilish – buxgalteriya hisobi, hujjatlar, statistik ma'lumotlarni o'rganish.
3. Baholash bosqichi – aniqlangan kamchiliklar, qonunbuzilishlar va risklarni tahlil qilish.
4. Hisobot va tavsiyalar – aniqlangan muammolarni bartaraf etish uchun takliflar ishlab chiqish.
5. Nazorat va monitoring – tavsiyalarni bajarilishi ustidan kuzatuv.

Mazkur maqolaning maqsadi korxona moliyaviy natijalarini shakllantirishda ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining ta'sirini empirik tahlil asosida baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish, moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini ilmiy asosda takomillashtirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI.

Korxona moliyaviy natijalarini shakllantirish va ularni boshqarish masalalari iqtisodiy fanlarda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda ichki

nazorat va audit tizimi moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta'minlovchi muhim boshqaruv mexanizmi sifatida talqin etiladi. Ichki nazorat va audit tizimi orqali moliyaviy faoliyatdagi xatoliklar, yo'qotishlar va risklarni aniqlash hamda ularning oldini olish imkoniyati yaratiladi [1]. Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ichki audit korxona moliyaviy natijalarini shakllantirishga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi axborot manbai sifatida baholanadi. X. Pardaev va B. Jo'raevlarning ishlarida ichki audit tizimining samarali tashkil etilishi daromad va xarajatlar ustidan nazoratni kuchaytirishi, moliyaviy natijalar barqarorligini ta'minlashi ilmiy asosda yoritilgan. Mualliflar ichki audit natijalaridan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish zarurligini alohida ta'kidlaydilar [2]. Moliyaviy natijalarni tahlil qilishda empirik yondashuvlardan foydalanish masalalari A. Vahobov va Sh. Ibragimovlarning ilmiy ishlarida keng o'rganilgan. Ular moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda statistik va ekonometrik usullar, xususan, regressiya va korrelyatsiya tahlilining ahamiyatini asoslab beradilar. Ushbu yondashuv moliyaviy natijalarning shakllanish mexanizmini miqdoriy jihatdan baholash imkonini beradi [3]. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ichki nazorat va audit tizimi moliyaviy natijalar va moliyaviy hisobotlar ishonchliligining asosiy institutsional omili sifatida qaraladi. R. Arens va J. Loebbecke ichki nazorat tizimining samaradorligi moliyaviy natijalarning haqqoniy aks ettirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlab, audit ko'rsatkichlaridan analitik va empirik tahlillarda foydalanish zarurligini ko'rsatib o'tganlar [4]. Shuningdek, P. Gujarati va D. Porter tomonidan ishlab chiqilgan ekonometrik modellash tirish metodologiyasi iqtisodiy jarayonlarni empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Mualliflar iqtisodiy natijalarni baholashda foydalaniladigan ma'lumotlar bazasining sifati, to'liqligi va barqarorligi tahlil natijalarining ishonchliligini belgilovchi asosiy omil ekanligini asoslab berganlar [5]. Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki nazorat va audit tizimi hamda moliyaviy natijalarni empirik tahlil qilish masalalari alohida yo'nalishlarda yetarlicha o'rganilgan. Biroq ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarni shakllantirishdagi ta'sirini yagona empirik va ekonometrik yondashuv asosida kompleks baholash masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Ushbu ilmiy bo'shliq mazkur tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda korxona moliyaviy natijalarini shakllantirishda ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining ta'siri empirik yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqotning axborot bazasi korxonalarining moliyaviy hisobotlari hamda ichki nazorat va audit hujjatlaridan shakllantirildi. Moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar (sof foyda, rentabellik darajasi) hamda ichki nazorat va audit tizimiga oid asosiy indikatorlar tanlab olindi va tizimlashtirildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, taqqoslash va tizimli tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik tahlilni amalga oshirishda statistik tavsiflash, korrelyatsiya va ko'p omilli regressiya tahlili qo'llanildi. Ekonometrik modelni baholash jarayonida natijalarning ishonchliligini ta'minlash

maqsadida multikollinearlik, geteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya bo'yicha diagnostik testlar o'tkazildi. Olingan empirik natijalar asosida ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarining moliyaviy natijalarga ta'siri miqdoriy jihatdan baholanib, korxonalarda moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ichki nazorat va audit asosida korxona moliyaviy natijalarini empirik modellashtirishning mohiyati moliyaviy ko'rsatkichlarning shakllanish jarayonida yuzaga keluvchi risklar, nazorat mexanizmlari va audit natijalarini miqdoriy o'zgaruvchilarga aylantirib, ularni ekonometrik modellar orqali tahlil qilishdan iboratdir. An'anaviy yondashuvlarda moliyaviy natijalar asosan hisobot ma'lumotlari asosida baholansa, ushbu yondashuvda foyda, rentabellik va pul oqimlariga ta'sir etuvchi ichki nazorat sifati, audit testlari natijalari va aniqlangan kamchiliklar empirik tahlil markaziga qo'yiladi. Natijada, moliyaviy natijalarning faqat yakuniy ko'rinishi emas, balki ularning yuzaga kelish sabablari va boshqaruv sifati bilan bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslanadi.

Mazkur empirik modellashtirishning mazmuni ichki nazorat va audit ko'rsatkichlarini (masalan, schyotlar qamrovi, nazorat testlari samaradorligi, material nuqsonlar ulushi, tuzatish choralarining tezligi va moliyaviy ta'siri) tizimli ravishda moliyaviy natijalar bilan bog'lashdan iboratdir. Bunda "hisobot satri → risk → nazorat → audit testi → moliyaviy ta'sir" zanjiri asosida empirik ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, regressiya, panel yoki dinamik ekonometrik modellar yordamida sabab-oqibat munosabatlari aniqlanadi. Ushbu yondashuv korxona moliyaviy natijalarini baholashda ichki nazorat va auditning real hissasini miqdoriy jihatdan o'lchash, risklarni kamaytirish orqali erishilayotgan iqtisodiy samarani aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish imkonini beradi. Ekonometrik modellashtirishda o'zgaruvchilarni tanlash tadqiqotning nazariy asoslariga tayanishi lozim. Asosiy o'zgaruvchilar (masalan, IFRSni joriy etish, moliyaviy hisobot sifati, ichki nazorat tizimi) konseptual modelda belgilangan sabab-oqibat bog'liqliklarini ifodalaydi. Statistik asoslanish esa ushbu nazariy munosabatlarning real ma'lumotlarda mavjudligini tekshirish imkonini beradi. Shu orqali model tasodifiy emas, balki ilmiy mantiqqa tayangan holda qurilgan bo'ladi. O'zgaruvchilar tanlovi statistik mezonlar bilan asoslanmaganda, model noto'g'ri spetsifikatsiya (misspecification) xatoligiga duch kelishi mumkin. Statistik asoslanish (korrelyatsiya tahlili, tavsifiy statistika, multikollinearlik tekshiruv) muhim bo'lmagan yoki takrorlanuvchi o'zgaruvchilarni chiqarib tashlashga yordam beradi. Natijada regressiya koeffitsientlari barqaror va ishonchli baholanadi.

Xususan, CCR va MTC ko'rsatkichlari audit qamrovining yetarlilik darajasini aniqlab, material schyotlar va asosiy nazoratlarning qanchalik to'liq testdan o'tkazilganini baholash imkonini beradi. MDR va RT ko'rsatkichlari aniqlangan nuqsonlarning sifat jihatdan muhimligini hamda ularni bartaraf etish tezligini tavsiflab, ichki nazorat tizimining amaliy ijro darajasini ko'rsatadi. DEV (ECL) va SAV

indikatorlari esa audit va nazorat tadbirlarining bevosita moliyaviy ta'sirini ifodalab, kutilayotgan kredit yo'qotishlaridagi farq hamda oldi olingan yoki qaytarilgan mablag'lar orqali erishilgan iqtisodiy samarani aniqlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu ko'rsatkichlar tizimi ichki audit faoliyatini nafaqat protsessual, balki moliyaviy natijalar nuqtayi nazaridan ham empirik baholash imkonini yaratadi (3.1.2-Jadval)

Moliyaviy hisobot satrlari bo'yicha material risklar tahlili"

Hisobot satri	Material schyotlar guruhi (misol)	Tipik risk
Daromad (Revenue)	Sales revenue, returns/discounts	Daromadni erta/kech tan olish
Debitorlik (A/R)	Trade receivables, doubtful allowance	Soxta qarzdorlik, rezerv xatosi
Zaxiralar (Inventory)	Raw/WIP/Finished goods	Qoldiq noto'g'ri, obsolescence
Xarajatlar (COGS/OPEX)	COGS, admin/selling expenses	Klassifikatsiya, "cut-off"
Pul mablag'lari	Cash/bank accounts	O'zlashtirish, recon yo'qligi
Asosiy vositalar	PPE, depreciation	Kapitalizatsiya xatosi
Kreditorlik (A/P)	Trade payables, accruals	Majburiyat yashirilishi
Soliq majburiyatlari	VAT/CIT/payroll taxes	Jarima, noto'g'ri hisob

Daromadlar schyoti korxona moliyaviy natijalarini shakllantiruvchi asosiy manba bo'lib, bu yerda daromadni erta yoki kech tan olish bilan bog'liq risklar keng tarqalgan. Savdo daromadlari, qaytarishlar va chegirmalar bo'yicha noto'g'ri vaqt tanlanishi foydaning sun'iy oshirilishi yoki kamaytirilishiga olib keladi. Shu sababli, daromad schyotlari auditida "cut-off" va daromadni tan olish mezonlari muhim risk sifatida baholanadi.

Debitorlik schyotlari bo'yicha asosiy risklar soxta yoki undirilmaydigan qarzdorliklarning yashirilishi hamda shubhali qarzlar bo'yicha rezervlarning noto'g'ri hisoblanishi bilan bog'liq. Trade receivables va allowance schyotlarining haqqoniy baholanmasligi korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligini noto'g'ri aks ettiradi. Audit nuqtayi nazaridan bu schyotlar mavjudlik va baholash risklari yuqori bo'lgan guruhga kiradi.

Zaxiralar schyoti ishlab chiqarish va savdo faoliyatida muhim o'rin tutadi. Xomashyo, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulot qoldiqlarining noto'g'ri hisobga olinishi yoki eskirgan (obsolescence) zaxiralarning vaqtida hisobdan chiqarilmasligi aktivlarning ortiqcha baholanishiga olib keladi. Shu bois, zaxiralar bo'yicha miqdoriy va qiymat risklari auditda alohida e'tibor talab qiladi.

Xarajatlar schyotlari bo'yicha asosiy risklar xarajatlarning noto'g'ri klassifikatsiyasi va davrlararo taqsimlanishida ("cut-off") yuzaga keladi. Ishlab chiqarish tannarxi va operatsion xarajatlarning noto'g'ri guruhlanishi moliyaviy natijalarning buzilishiga sabab bo'ladi. Audit jarayonida xarajatlarning to'liqligi va to'g'ri davrga tegishliligi tekshiriladi.

Pul mablag'lari schyotlari eng yuqori suiiste'mol va o'zlashtirish riski mavjud bo'lgan aktivlar guruhidir. Bank hisobvaraqlari bilan buxgalteriya yozuvlari o'rtasida reconciliationning yo'qligi yoki sustligi firibgarlik ehtimolini oshiradi. Shu sababli, pul mablag'lari auditida mavjudlik va nazorat risklari ustuvor hisoblanadi.

Asosiy vositalar schyotida kapitalizatsiya va amortizatsiya xatolari keng uchraydi. Joriy xarajatlarning noto'g'ri ravishda kapital xarajat sifatida tan olinishi

aktivlar va foydaning sun'iy oshirilishiga olib keladi. Auditda baholash va tasniflash risklari ushbu schyot guruhi uchun muhim ahamiyatga ega.

Kreditorlik schyotlari bo'yicha asosiy risk majburiyatlarning yashirilishi yoki kechiktirib tan olinishi bilan bog'liq. Trade payables va accruals'larning to'liq aks ettirilmasligi moliyaviy majburiyatlarning kamaytirilgan ko'rinishda taqdim etilishiga olib keladi. Shu sababli, kreditorlik schyotlari auditida to'liqlik riski yuqori hisoblanadi.

Soliq majburiyatlari schyotlari bo'yicha noto'g'ri hisob-kitoblar, soliq bazasining noto'g'ri aniqlanishi va hisobot xatolari jarimalar va qo'shimcha moliyaviy yuklamalarga sabab bo'lishi mumkin. QQS, foyda solig'i va ish haqi soliqlari bo'yicha risklar korxona moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Auditda ushbu schyotlar compliance va baholash risklari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Moliyaviy hisobot satrlari kesimida material schyotlar va ularga xos tipik risklarni aniqlash ichki nazorat va audit jarayonlarini riskga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish hamda moliyaviy natijalarning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi (3.1.3-jadval)

Hisobot satrlari kesimida audit risklari va nazorat testlari

Hisobot satri → Schyot guruhi	Risk	Nazorat (key control)	Test	Dalil	Davriylik / mas'ul
Daromad → Sales	Cut-off buzilishi	Shartnoma + yuk xati/faktura mosligi	30 ta tranzaksiya: period end	Invoice, delivery note	Oylik; Sales+Finance
A/R → Receivables	Soxta debitorlik	A/R aging review + tasdiq (confirmation)	Confirmation + aging analitika	A/R aging, letters	Chorak; Finance
Inventory → Stock	Qoldiq noto'g'ri	Inventarizatsiya + 3-way match	Cycle count, reconcile	Count sheets, GL	Chorak; Warehouse
Xarajatlar → OPEX	Noto'g'ri klassifikatsiya	Budget vs actual review	25 sample + analytic review	Budget report	Oylik; Finance
Cash → Bank	Recon yo'qligi	Bank reconciliation (4-eyes)	Recon tekshiruv + bank statement	Bank stmt, recon	Oylik; Treasury
PPE → Fixed assets	Noto'g'ri kapitalizatsiya	Capex approval + asset register	Sample capex: approval→invoice→asset	Capex file	Chorak; Finance/Tech
A/P → Payables	Majburiyat yashirish	3-way match: PO-GRN-Invoice	Sample + unmatched report	PO/GRN/Invoice	Oylik; Procurement

Mazkur jadval moliyaviy hisobotning asosiy satrlari bo'yicha yuzaga keluvchi tipik risklar, ularni kamaytirishga qaratilgan ichki nazorat mexanizmlari hamda audit testlari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aks ettiradi. Xususan, daromadlar bo'yicha cut-off riskini bartaraf etishda shartnoma va birlamchi hujjatlarning mosligi, debitorlik qarzlari soxta qarzdorlik riskini aniqlashda aging tahlili va tashqi tasdiqlash mexanizmlari muhim nazorat vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Zaxiralar, xarajatlar, pul mablag'lari, asosiy vositalar va kreditorlik qarzlari bo'yicha belgilangan nazoratlar va audit testlari moliyaviy axborotning to'liqligi, haqqoniyligi va davriyligini ta'minlashga xizmat qiladi. Umuman olganda, ushbu jadval riskga yo'naltirilgan audit yondashuvi asosida moliyaviy hisobotlar ishonchliligini oshirish va empirik tahlil uchun sifatli ma'lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi.

XULOSA.

Korxona moliyaviy natijalarini shakllantirish jarayonida ichki nazorat va audit tizimining samarali tashkil etilishi muhim omillardan biri hisoblanadi. O'tkazilgan empirik tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki nazorat mexanizmlarining puxta yo'lga qo'yilishi moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, xatoliklar va moliyaviy buzilishlarning oldini olish hamda korxona faoliyatining shaffofligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, audit jarayonining muntazam amalga oshirilishi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshirishga, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq va haqqoniy axborot bazasini shakllantirishga xizmat qiladi. Empirik tahlil natijalariga ko'ra, ichki nazorat tizimi samaradorligi yuqori bo'lgan korxonalarda moliyaviy natijalar barqarorroq bo'lishi, xarajatlar ustidan nazorat kuchayishi hamda foyda ko'rsatkichlari ijobiy tendensiya bilan shakllanishi kuzatildi. Audit ko'rsatkichlari esa moliyaviy intizomni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish darajasini oshirish va moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynashi aniqlangan. Yuqori sifatli ichki audit funksiyasi IFRS asosidagi moliyaviy hisobotlarda xatoliklarni erta aniqlash, daromadlarni boshqarish amaliyotlarini cheklash va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqib, tashkilotlarda ichki auditning tashkiliy mustaqilligini kuchaytirish, audit qo'mitalari rolini faollashtirish hamda auditorlarning kasbiy malakasini doimiy oshirib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, ichki audit jarayonida ERP va boshqa raqamli axborot tizimlaridan keng foydalanish, buxgalteriya ma'lumotlarining shaffofligi va audit dalillari sifatini oshirish zarur. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi ichki audit samaradorligini oshirish va moliyaviy boshqaruvning barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ichki nazorat va audit tizimi ko'rsatkichlari korxona moliyaviy natijalarini shakllantirishda muhim empirik ahamiyatga ega. Empirik tahlil ichki nazorat va audit ko'rsatkichlari bilan moliyaviy natijalar o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini tasdiqlab, ularning ta'sirini miqdoriy baholash imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqotda qo'llanilgan empirik yondashuv ichki nazorat va audit tizimini takomillashtirish orqali moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Olingan xulosalar korxonalarda asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, moliyaviy natijalarni

yaxshilash hamda ichki nazorat va audit tizimini rivojlantirishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, korxonalarda ichki nazorat va audit tizimlarini takomillashtirish, zamonaviy audit usullarini joriy etish hamda moliyaviy monitoring mexanizmlarini kuchaytirish moliyaviy natijalarni barqaror shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar asosida audit va nazorat jarayonlarini avtomatlashtirish, riskga yo’naltirilgan nazorat mexanizmlarini joriy etish ham korxona moliyaviy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YHATI.

1. Pardaev X.P. Ichki nazorat va audit asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. – 248 b.
2. Jo’raev B.B. Korxonalarda ichki audit va moliyaviy natijalarni boshqarish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 216 b.
3. Vahobov A.V., Ibragimov Sh.Sh. Iqtisodiy tahlil va empirik modellashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot-Moliya, 2020. – 305 b.
4. Arens A.A., Loebbecke J.K. Auditing: An Integrated Approach. – New York: Pearson Education, 2016. – 912 p.
5. Gujarati D.N., Porter D.C. Basic Econometrics. – New York: McGraw-Hill Education, 2018. – 922 p.
6. Abbott, L. J., Parker, S., & Peters, G. F. Serving two masters: The association between audit committee internal audit oversight and internal audit activities // Accounting Horizons. – 2010. – Vol. 24, No. 1. – P. 1–24.
7. Gramling, A. A., Maletta, M. J., Schneider, A., & Church, B. K. The role of the internal audit function in corporate governance: A synthesis of the extant internal auditing literature and directions for future research // Journal of Accounting Literature. – 2004. – Vol. 23. – P. 194–244.
8. Goodwin, J. A comparison of internal audit in the private and public sectors // Managerial Auditing Journal. – 2004. – Vol. 19, No. 5. – P. 640–650.
9. Prawitt, D. F., Smith, J. L., & Wood, D. A. Internal audit quality and earnings management // The Accounting Review. – 2009. – Vol. 84, No. 4. – P. 1255–1280.
10. Allegrini, M., & D’Onza, G. Internal auditing and risk assessment in large Italian companies: An empirical survey // International Journal of Auditing. – 2009. – Vol. 13, No. 1. – P. 1–19.
11. Endaya, K. A., & Hanefah, M. M. Internal auditor characteristics, internal audit effectiveness, and moderating effect of senior management // Journal of Economic and Administrative Sciences. – 2016. – Vol. 32, No. 2. – P. 160–176.